

“Raqamli-iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnal uchun maqola shakllantirish tartibi

Jurnal haqida qisqacha ma'lumot. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnalni 2022 yildan boshlab, uch tilda – o‘zbek, rus, qoraqalpoq va ingliz tillarida chop etilmoqda.

Jurnalning davriyligi: jurnalning yangi soni har chorakda bir marotaba chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayostaning 2023-yil 29-dekabrdagi 347/5-son qarori bilan **08.00.00 – “Iqtisodiyot fanlari”** tarmoqlari bo‘yicha tan olingan milliy ilmiy jurnallar sirasiga kiritilgan. Bu esa o‘z navbatida, yuqoridagi ixtisoslik bo‘yicha tahsil olayotgan mustaqil izlanuvchilar va doktorantlarga bevosita xizmat qiladi.

Qo‘srimcha xizmat sifatida har bir maqola jurnal saytiga joylanadi.

Jurnal maqsadi talaba (bakalavr va magistrant)lar, doktorantlar va tadqiqotchi olimlar, ilmiy izlanuvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangiliklar, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohalarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonlarini yoritish, hamda raqamli iqtisodiyot sohalarida olib borilayotgan dolzarb ilmiy izlanishlar natijalarini ommalashtirishdan iborat.

Ilmiy maqolalarni qabul qilish va nashr ettirish. Maqolalar tahririyatga bevosita murojaat yoki elektron manzilga yuborish yo‘li orqali qabul qilinadi.

Maqolalar IMRAD talabi asosida o‘zbek, rus, qoraqalpoq va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Qabul qilingan maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki texnik ekspertiza va taqrizdan o‘tkaziladi.

Qabul qilingan materiallarni chop etish muddatlari. Jurnalning davriy tavsif kasb etishini e’tiborga olgan holda qoida tariqasida har 3 oyda bir marotaba chop etiladi.

Majburiyat. Tahririyat tomonidan taqrizdan o‘tgan va nashrga tavsiya etilgan maqolalarda keltirilgan dalillar va ma’lumotlar uchun muallif javobgar hisoblanadi. Tahririyat taqrizdan o‘tmagan maqolalar qaytarilishi va unga izoh berish majburiyatini olmaydi.

Maqolani rasmiy lashtirish

IMRAD talabi asosida tayyorlanadigan maqolalar uchun quyidagi shakldan foydalanish tavsiya etiladi.

Rasmiy lashtirish bo‘yicha umumiy talabalar:

- Varaq formati: A4;
- Varaqning yo‘nalishi – kitob shakli;
- **Maydonlar:**
yuqori va pastdan – 2 sm;
chapdan – 3 sm;
o‘ngdan – 1,5 sm.
- Maqolaning matnidagi barcha harflar – Times New Roman 14 o‘lchamda:
- Qator oraliq intervali – 1,15
- Barcha xatboshilar – 1,25 sm.
- Qator oralig‘i – 1,15;
- Kenglik bo‘yicha tekislash;
- Maqolaning nomi, muallifning familiya, ismi va sharifi, ish joyi va lavozimi, annotatsiya va kalit so‘zlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida yozilishi kerak.

MAQOLANING NOMI

(Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda qalin, katta harfli formatda o‘rtada joylashishi lozim)

Muallifning familiya, ismi va sharifi

(Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda qalin, o‘rtada joylashishi lozim)

Ish joyi va lavozimi

(Times New Roman 14 o‘lchamda kursiv, o‘rtada joylashishi lozim)

Elektron manzil

(Times New Roman 14 o‘lchamda chizilgan matn, o‘rtada joylashishi lozim)

Annotatsiya: Maqola annotatsiyasi 5-7 qatordan iborat bo‘lib, o‘zbek, rus va ingliz tillarida yozilishi lozim. Annotatsiya maqolada ko‘tarilgan masala, uning dolzarbliji, masalaning yechimi uchun foydalanilgan uslubiyat, masalaning yechimi, muallifning ilmiy va amaliy hissasi haqida qisqacha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. (Times New Roman 14 o‘lchamda kursiv, kenglik bo‘yicha tekislash lozim)

Kalit so‘zlar: *Maqolaning mazmunini ochib beruvchi kamida 7 ta so‘zni o‘z ichiga oluvchi so‘zlardan iborat bo‘lishi lozim. Kalit so‘zlar ham o‘zbek, rus va ingliz tillarida har bir annotatsiyadan so‘ng yozilishi kerak.* (Times New Roman 14 o‘lchamda kursiv, kenglik bo‘yicha tekislash lozim)

KIRISH (katta harflarda Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda)

Maqolaning kirish qismida maqolada ko‘tarilgan muammo, uning tavsifi, maqolada tadqiq qilingan masalaning tanlanish sababi, asoslari, uning dolzarbligi va ilmiy yangiligin o‘zida aks ettirishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI (katta harflarda Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda)

Bu bo‘limda tahlil etilgan adabiyotlar yoritiladi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya qismida kichik sarlavhalar mavjud bo‘lsa, 14 o‘lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuviga, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (katta harflarda Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda)

Mazkur bo‘limda ilmiy maqola mavzuiga oid natija olishdagi metodlar va metodologiya haqida fikr yuritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (katta harflarda Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda)

Ushbu bo‘limda maqolaga oid bo‘lgan natijalar (jadvallar, grafiklar, diagrammalar va boshqalar) berilishi mumkin.

Maqolada qo‘llaniladigan rasmda foydalanilgan adabiyot havolasi (manba) ko‘rsatiladi va quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



1-rasm. Rasm nomi [1]

Jadval raqamlanishi yuqori o‘ng qismida, nomlanishi jadvalning yuqori qismining markazida bosma harflarda, shu bilan birgalikda ularning manbasi aniq ko‘rsatilishi lozim.

1-jadval

Jadval nomi [1]

Nº	Sarlavha 1	Sarlavha 2	Sarlavha 3
1	Matn	Matn	Matn
2	Matn	Matn	Matn

XULOSA VA TAKLIFLAR (katta harflarda Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda)

Bu bo‘limda maqolaning tugallangan xulosasi va takliflar keltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (katta harflarda Times New Roman bosma shaklda 14 o‘lchamda)

Mazkur bo‘limda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati shakllantiriladi. O‘rganilgan adabiyot yoki manbaning muallifi, mavzusi, chop etilgan yili va joyi, nashriyot va qo‘llanilgan betlari ko‘rsatilishi kerak.

Jurnal uchun:

1. Axmedov B.I., RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI. “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali, Toshkent, 2023y - №2 - B. 7-9.

Vebsaytlar

2. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awarenessmonolingual-classroom-0>

Kitob uchun

3. Karimov O.M. Raqamli iqtisodiyot – T.: Sharq, 2018. – bet 234.